

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

**Muassislar:**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 1 - 7-avgust N:31 (66520)

## GAZETANING «TUG'ILGAN KUN» I

Kechagidek yodimda, 10-sinfni tamomlab, «Tong yulduzi» (o'sha paytlarda «Lenin uchquni» nomi bilan atalardi) tahririyatiga ishga kelgan kunlarimda uning 50 yillik yubileyi keng nishonlanayotgandi. Yubiley munosabati bilan kattagina

maktublari yozish bizning zimmamizda edi. Kun bo'yi qo'limiz-qo'limizga tegmay ishlasak-da, hech kim nolimasdi. Chunki gazetamiz muxlislari qanchalar ko'p bo'lsa, biz shunchalar quvonardik-da...

Umrning oqar daryo,

jurnalistlari uchun ham keng imkoniyat va erkinliklar yaratildi. Avvallari yozganlarimiz qayta-qayta o'qilib, yuz chig'iridan o'tkazilardi. Hozir esa nimani lozim topsak, shuni yozamiz. Gazetamiz sahifalaridan bugungi kun nafasi ufurib

Ularning gazeta ham o'qimay qo'yishayotgani achchiq haqiqat-ku. Bunga kim sababchi? Faqat bolalarning o'zlarimi? Bizningcha, ot-onalarimiz ham, maktabdagi ustozlarimiz ham sababchilar. Biz maktabda o'qib yurgan kezlrimizda gazeta va jurnallarga bir yillik obuna majburiy sanalardi. Ustoz va yetakchilarimiz obuna masalasiga juda jiddiy qarashardi. Eshik yonida turib olib obuna uchun pul olib kelgan, kelmaganimizni so'rashdan charchashmasdi. Hozir esa respublikada yagona bolalar va o'smirlar nashri bo'lmish «Tong yulduzi» gazetasi obunasiga panja ortidan qaralayotgandek, nazarimda. Uning nomi respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan «majburiy obuna nashrlari ro'yxati»ga ham kiritilmaganini qanday izohlash mumkin? O'tgan yili «Har sinfga 10 tadan «Tong yulduzi» tashabbusi bilan chiqqandik. Unga ham «xo'ja ko'rsin»ga ergashishgan chog'i, yil boshida 50 mingdan

qo'yilmay, gazeta taxlamlari orasida yotarkankan. Sababini so'rasak, unchalik talab yo'q, deyishadi. Katta yoshli insonlar o'ziga kerakli nashrni so'rab olishadi. Bolaning ko'ngli dalada, deb bejiz aytilmagan-ku, axir. Gazeta sotib olish har doim ham yodida bo'lavermaydi. Avvallari oq-qora rangda chop etilgan «Tong yulduzi» hozirda rangli tasvirda chiqyapti. Ayniqsa, uning birinchi sahifasini bolalar diqqatini tortadigan qilib bezatishga intilamiz. Agar u do'konning ko'zga ko'rinadigan yeriga ilib qo'yilsa, cho'ntagida ot-onasi kompyuter o'ynashi yoki muzqaymoq sotib olishi uchun bergan puli bo'lgan bolakaylar albatta sotib olishlariga ishonchimiz komil.

Ana shunday do'konlar sotuvchilaridan ham bir o'tinchimiz bor: gazeta yoki jurnal sotib olayotgan insonlarga, o'g'lingiz yo qizingiz uchun mana bu gazetadan ham olib keting, deya «Tong yulduzi»ni tavsiya qilishsa, hech bir ma'rifatli ota-ona yo'q demasligiga aminmiz. Bu bilan ular farzandlarimiz, demakki, ertangi kunimiz egalarining yanada bilimli, ma'rifatli bo'lishlariga oz bo'lsa-da, o'z hissalarini qo'shgan bo'lardilar...

Odatda tug'ilgan kun tantanalarida uning sababchilariga yaxshi tilaklar bildiriladi. Bugun o'z «tug'ilgan kun»ini nishonlayotgan gazetamizga ham ezguniyatlarimiz bisyor: Qadrdon «Tong yulduzi»miz! Rangbarang sahifalaring soni ortsin, mavzularing, mundarijang boyisin, muhimi, seni qo'lidan qo'ymaydigan o'quvchilaring soni yanada ko'paysin!

Feruza JALILOVA,  
Bosh muharrir o'rinbosari.

### BUGUN «TONG YULDUZI» GAZETASINING CHOP ETILA BOSHLAGANIGA 76 YIL BO'LADI



tantana uyushtirilib, tahririyatda uzoq yillar davomida mehnat qilgan faxriylar e'zozlangandilar. Ularga quchoq-quchoq guldastalar, esdalik sovg'alari topshirilgandi. Kecha so'ngida uning har bir ishtirokchisiga gazetaning 50 yillik tarixi va buguni haqida «hikoya qiluvchi» bukletlar, znachoklar tarqatilgandi. Yangi xodim bo'lsam-da, qo'ynim bir quchoq gulga to'lib, bukletni varaqlayman. Undagi faxriylarning suratlariga havas-la boqib, men ham ulardek bo'la olarmikanman, degan o'y kechgandi xayolimdan...

So'ngra gazetadagi «jo'shqin hayot»ga singib ketdim. O'sha paytlarda gazetamiz 1 million 200 ming nusxada chop etilardi. Uning muxlislardan esa kuniga 2-3 qoplab xat va xabarlar olardik. Xatlarning har birini o'qib, mazmuniga qarab bo'limlarga tarqatish, javob

deganlari rost ekan. Ko'z ochib yumguncha oradan 26 yil o'tibdi. Shu yillar mobaynida «Tong yulduzi» ham ancha ulg'ayib, «otaxon gazeta»ga aylanibdi.

Shunday quvonchli kunlarda uning o'tmishi va buguniga bir nazar solgim keldi: avvallari bir qolip asosida ishlardik. Gazetaning mundarijasi, ruknlari, hatto yozilajak maqolamizning mavzusi ham oldindan belgilab berilardi. Bolalar hayotiga oid mavzular ham u darajada ko'p emasdi. Maktab hayotiga oid maqolalardan boshqa nimani ham yozardik? O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bilim yurtlari haqida-ku, gap ham bo'lishi mumkinmasdi. Shunday bo'lsa-da, muxlislaring soni juda ko'p edi...

14 yil avval qo'lga kiritgan istiqlolimizning erkin shabadasi gazetamiz sahifalarini ham siypalab o'tdi. Barcha sohada bo'lgani kabi, biz bolalar

turishiga intilamiz. Respublikamizdagi juda ko'plab maktablar, kasb-hunar bilim yurtlari, litsey va kollejlilar, fan va hunar to'garaklari, maktabdan tashqari muassasalar hayotiga oid yangiliklarni yoritishga ulgurolmay ham qolyapmiz. Xorijiy tillarni puxta o'rganib, maxsus grantlar asosida chet elda tahsil olayotgan o'g'il-qizlar haqida

o'qishni istaysizmi yoki kompyuter bilimdonlari bilan tanishishni xohlaysizmi, marhamat! Xullas, o'qiyman desangiz, gazetada qiziqarli mavzular serob. Shunday bo'lsa-da, o'quvchilarimiz soni oyma-oy kamayib borayotgani tashvishga solyapti bizni. Keyingi paytlarda tez-tez quloqqa chalinib turgan «Bolalarimiz kitobdan uzoqlashib ketishdi» degan iborada jon bor albatta.



o'shgan obunachilarimiz soni ikkinchi yarmiga kelib 15 mingga tushib qoldi.

Shu o'rinda «Matbuot tarqatuvchi» aksiyadorlik kompaniyasiga ham biroz e'tirozimiz bor: gazetamiz do'konlarga 1 yoki 2 donadagina tarqatilarkan. U ham bo'lsa, do'konlarning ko'zga ko'rinarli yeriga osib

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Toshkent shahar bo'limida ham «Yozni «Kamolot» bilan» loyihasi bo'yicha talaygina ibratli tadbirlar o'tkazib kelinyapti. Yaqinda Toshkent shahar, Uchtepa tumani bo'limida ham ajoyib tadbir bo'lib o'tdi.

topilgan bo'lsa, basketbol bo'yicha Farhod, Murod, Abror, shaxmat-shashka bo'yicha Jasur, Kamol, Shuhrat, qizlar estafetasida esa Nazokat, Farzona va Elnora g'olib deb topildilar. G'oliblar «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati tomonidan «Faxriy yorliq»lar bilan

## KELAJAGIMIZ POYDEVORI MUSTAHHAM

Mazkur tumanning Al-Sog'unii mahallasida «Ko'chma sport» ommaviy o'yinlari uyushtirildi. Tadbirida 75 ta mahalla bolalari, hamda tuman sardorlar kengashi a'zolari ishtirok etishdi. Bolalar futbol, basketbol, shaxmat-shashka bo'yicha musobaqalashishdi.

— Mening bunday tadbirlarda ilk bor ishtirok etishim, — deydi tumanning yetakchi sardorlaridan biri Luiza ismli qiz. — Biz dunogalarim Lobar, Elnora, Nazokat, O'g'iloy va Farzona bilan halqa aylantirish bo'yicha musobaqalashyapmiz...

Nihoyat eng hayajonli palla — g'oliblarni aniqlash damlari yetib keldi. Futbol musobaqalari g'olibi deb, «Lochin» guruhi

taqdirlanishdi.

— Shunday qiziqarli estafetani tashkil qilishgani uchun uning ishtirokchilaridan behad minnatdormiz. Mahallamizda bu kabi tadbirlar tez-tez o'tkazib turilsa, zo'r bo'lardi-da, — deydi estafetaning 1-o'rin sohibasi Nazokat Husayinova.

Uning fikriga biz ham qo'shildik. Darhaqiqat, bunday tadbirlar ko'plab uyushtirilsa, biz bolajonlar sog'lom bo'lamiz. Demak, kelajagimiz poydevori ham yanada mustahkam bo'ladi.

Nargiza SAYDULLAYEVA,  
«Yangi avlod» media klubi a'zosi.



## BIZGA QANOT TASHKILOT

Yaqinda tumanimizda «Kamolot» YoI Hning «Kamalak» BT va G'ijduvon XTB bilan birgalikda «Mahallamiz bolalari» deb nomlangan tadbir o'tkazildi. Ko'rik-tanlov sifatida o'tgan tadbirning asosiy maqsadi mahallada yolg'iz qolgan qariyalarga, urush qatnashchilariga yordam

berishga, hamda mahalla bolalari faolligini oshirishga qaratildi. Tanlovda maktabimizning «Saxovat» guruhi g'olib deb topilib, tuman bosqichiga yo'llanma oldi. Demak, maktabimiz o'quvchilari mehr-muruvvat, saxovat bobida hech kimdan kam emas ekanlar.


Gulhayo NURATOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 49- maktabning  
8-«A» sinf o'quvchisi.



## «KAMOLOT» da nima gap?

«Nima? Qachon? Qayerda?»

intellektual o'yinlari davom ettirdi. bo'sh vaqtlarini G'oyat qiziqarli o'tgan ushbu qanday o'tkazishlari bilan ko'proq qiziqishdi.



— Bizni o'zbek bolajonlari chehrasidagi mamnunlik, xotirjamlik, sevinchning boisi qiziqtiradi, — deydi guruh yetakchisi Tado.

— Bularning boisi, yurtimizdagi tinchlik va xotirjamlik, qolaversa, diyorimizda huquqlarimizning har tomonlama himoya qilinganligi-yu biz uchun yaratilgan shart-sharoitlardir,

bellashuvlarda o'zbek va rus guruhlarida dam olayotgan bolajonlarning barchasi

tomonlama himoya qilinganligi-yu biz uchun yaratilgan shart-sharoitlardir,

## TADO, KENJI, EYKO KUYLANGAN «OMON YOR»

ta'tillarini mazmunli o'tkazishga o'z hissaralarini qo'shdilar. Buni qarangki,



bizning bolajonlarimiz ham chet ellik do'stlari bilan tezda til topishib, qadrdon og'a-inilardek bo'lib olishdi. O'n kun davomida koreyalik yoshlar bilan hamkorlikda sport musobaqalari, intellektual va madaniy

koreyalik do'stlari bilan birgalikda kuyladilar. Ushbu tadbirlarning asosiy qismi tog' yonbag'irlarida joylashgan «Geolog», «G'uncha» kabi bolalar oromgohlarida bo'lib o'tdi. Bolajonlar


«Kamolot»ga sayohat» deya nomlanuvchi sport musobaqalari shartlariga ko'ra, besh guruhga bo'linib, «Kim epchilu, kim chaqqon?», «Aql charxi», «Faqat sport haqida», «Robin Gud», «Maqtanma g'oz, hunaring oz!» kabi mavzulardagi tanlov va bellashuvlarda o'z bilim va mahoratlarini sinab ko'rdilar. Qiziqarli o'yinlarning ikkinchi bosqichini

ishtirok etishdi. Kech tushgach, «Kamolot» bilan o'yna» nomli musiqiy kecha va qiziqarli o'yinlar tashkil etildi. Koreyalik yoshlar dam oluvchilar bilan turli mavzularda suhbatlashdilar. Ayniqsa, o'zbekistonlik o'quvchilarning o'qish sharoitlari,

— deya javob berdi tuman «Xalqaro faoliyat» soha sardori Azimjon Husanov...

Koreyalik mehmonlar o'zbekistonlik bolajonlar bilan xayrlashar ekanlar, qishki ta'til kunlarida ham bu jannatmakon yurtga yana qaytib, ta'til kunlarini birgalikda o'tkazishga va'da berdilar. Kenji ismli bola esa yana olti oy muddatga O'zbekistonda qolib, Shayxontohur tumani «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati bo'limi sardorlari bilan hamkorlikda ish olib boradigan bo'ldi.

Shohsanam  
NURMATOVA.



## «G'UNCHA»NING OHANRABOSI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani go'zal manzarasi, salqin shabadasi, purviqor tog'lari bilan bolajonlarnigina emas, kattalarni ham o'ziga ohanrabodek tortadi. Shaharning issig'idan qochib havosidan bu yerga tashrif buyurgan «sayohatchi» o'zini jannatda yurgandek his etadi. Ayniqsa, sershovqin Ugam daryosining billurdek toza, ayni damda muzdek suvi badaningizni «chimchilab» oladi-da, so'ng aybdordek sizga xush yoqishga, tanangizni yayratishga harakat qiladi. Xumson qishlog'idagi «G'uncha» oromgohi ham shunday go'zal maskanda joylashgan.

«Xumson-buloq» dam olish maskani yonidagi tik yo'ldan tepaga chiqsangiz, «O'rmon xo'jaligi»ga, undan so'ng oromgohga yetib kelasiz. Oromgoh uchun 10 gektarlik maydon ajratilgan. Bizni navbatchilar — Nurxon Mo'minova va Jahongir Abdullayev kutib olishdi. Ular hamrohligida oromgoh bilan tanisha boshladik.

### «KICKINA DEMANG BIZNI»

bu guruhimiz shiori, — deydi Nurxon Mo'minova.

— Ha, davomi «ko'tarib uramiz sizni» ekan-da, — deymiz kulib.

— Yo'q «Kichkina demang bizni, Yutib chiqamiz sizni».

Bizning «Kichkintoy» nomli guruhimiz qizlardan iborat. Barcha tanlovlarda g'olib bo'lishga intilayapmiz. Oromgohda 5 ta katta, 5 ta kichik guruhlar bor. 3-iyuldan 20-iyulgacha II mavsum, 20-iyuldan 18-avgustgacha III mavsumda ishlaymiz. Har bir mavsumda bolalarni qabul qilar ekanmiz, avvalo ularni oromgohning kun tartibi bilan tanishtiramiz. So'ng har bir dam oluvchiga ma'lum bir topshiriq yuklaymiz. Kimdir sardor, kimdir matbuot ishlari bo'yicha, yana kimdir sport bo'yicha mas'ul qilib saylanadi. Bizning guruhda qobiliyatli, san'atsevar bolalar ko'p. Oromgohning ochilish marosimida, «Gulxan» yoqilganda ular o'z mahoratlarini ko'rsata oldilar.

Tarbiyachi Nurxon Mo'minova o'z guruhi a'zosi, 89-maktabning 9-sinf o'quvchisi Neylya Dadaboyevani bizga tanishtirdi. U bizga o'zbek tilida go'zal qo'shiqlar ijro etib berdi.



## YULYA OPANING DEGANLARI

Oromgohga muxbir kelganini eshitiboq, Yulya Umidovna Matenova xush kayfiyatda bizga peshvoz chiqdi. U bizlarni dam oluvchilar yotoqxonasi, katta oshxona, to'garak mashg'ulotlari o'tiladigan xonalar, kutubxona, cho'milish havzasi, tibbiyot va ma'naviyat xonalari bilan birma-bir tanishtirdi.

Oromgoh agrosanoat majmui xodimlarining farzandlariga xizmat qiladi. Har bir mavsumda 220 nafardan bolalar dam olishayapti. Bosh oshpaz Dilorom Alimova va qandolatchi Muqaddas Mirvapayeva 4 mahal mazali taomlar va shirinliklar tayyorlab berishyapti. Oromgohimizda munchoq tikish (biser), yumshoq o'yinchoqlar, raqs to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Ularga Natalya Kolesova, Marina



Strajenko, Vera Vladimirovalar rahbarlik qilishmoqda. Yoshlar teatri aktyori Albert Xolmirzayev turli tanlovlar, teatrlashtirilgan tomoshalar o'tkazishda bosh-qosh bo'lmoqda. Yaqinda spartakiada o'yinlari o'tkazdik. G'oliblarga shahar Kasaba uyushmasi a'zosi Neylya Umarova diplom va mukofotlar topshirdi. Shuningdek, «Quvnoq ekspres», «Quyosh, havo va suv», «Hayvonot dunyosi», «Quvnoq bozor», «Mening mahallam», «Ertaklar olamida» kabi tadbir va tanlovlar ham uyushtirdik. Xullas, bu yerda bolajonlar hecham zerikishmayapti.

### Yozgi ta'til — tanaga tatir

Yaqinda spartakiada o'yinlari o'tkazdik. G'oliblarga shahar Kasaba uyushmasi a'zosi Neylya Umarova diplom va mukofotlar topshirdi. Shuningdek, «Quvnoq ekspres», «Quyosh, havo va suv», «Hayvonot dunyosi», «Quvnoq bozor», «Mening mahallam», «Ertaklar olamida» kabi tadbir va tanlovlar ham uyushtirdik. Xullas, bu yerda bolajonlar hecham zerikishmayapti.



## BOLAJONLAR NIMA DEYDI?

Oromgohdagi sharoitlar bilan tanishgach, bolalar bilan ham suhbatlashdik.

*Nargiza QOSIMOVA,*  
*Shayxontohur tumanidagi 42-maktab 3-sinf o'quvchisi:*

— Gulchehra opam bilan dam olayapman. Munchoqdan opamga bilakuzuk to'qidim. Rasmlar tanlovida ham qatnashdim. Mazza qilib cho'milish havzasida cho'milib, quyoshda

toblanamiz. Tibbiyot xonasida zarur muolajalarni ham olamiz. Atrof top-toza, daraxtlar quyuq. Archa va yong'oqlar ko'p, yodga to'yinayapmiz.

*Dildora G'ULOMOVA,*

*Sobir Rahimov tumanidagi 119-maktabning 5-sinf o'quvchisi:*

— Oromgohda 10 ta guruh bor: «Prometey», «Vega», «Orbita». Men Marina Strajenkodan yumshoq o'yinchoqlar tikishni o'rganyapman. Yangi tanishgan dugonalarim Aqida, Nigina, Farangiz munchoq tikishni o'rganib olishdi. Ruxsora, Madina esa rasm chizishga qiziqar ekan. Har kim o'zi qiziqqan to'garakka a'zo, ammo sport bilan shug'ullanish barcha uchun ekan. To'g'ri-da, chiniqqanga dard yuqmaydi. Kechqurun videosalonda filmlar namoyish qilinadi, diskoteka bo'ladi. Hammasi bepul.

*Nikita Slenkov, Aleksandr Galkin, Shohjahon Turopov, Ahror Abduraimov — 10-guruh a'zolari:*

— Biz spartakiada kunlari futbol o'ynab, 8-,3- guruhni yutdik. Yangi do'stlar orttirdik. Har kuni sport maydonchalarida turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanamiz. O'z devoriy gazetalarimizni tayyorladik. Bosh tarbiyachimiz Sadkovskiy Yan Igorovich bilan ko'plab tadbirlar uyushtirdik. Oromgoh ikkinchi uyimizdek bo'lib qoldi, uning ozodaligi, sarishtaligi uchun ham jon kuydiryapmiz.

*Jahongir ABDULLAYEV,*

*Marg'ilon shahridagi 8-maktabning 8-sinf o'quvchisi:*

— Juda ko'p toshkentlik do'stlar orttirdim. Futbol - jonu tanim, maza qilib to'p tepdim, chiniqdim. A'lo kayfiyat bilan Marg'ilonga qaytib, do'stlaringa Xumson tabiati, manzaralari haqida so'zlab bermoqchiman.

Darhaqiqat, oromgohdagi bolalar toza havo, go'zal tabiat qo'ynida miriqib dam olmoqdalar. Bunda Larisa Islamova, Botir Mo'minov, Dilara Qodirova kabi tarbiyachilarning ham hissasi katta. Shunday imkoniyat yaratilgan Respublikamizdan bo'lajak sport ustalari, raqqosalar, olimlar, shoir va yozuvchilar yetishib chiqishi shubhasiz. Hozircha esa ular miriqib dam olsinlar, yoz gashtini sursinlar.

Darhaqiqat, oromgohdagi bolalar toza havo, go'zal tabiat qo'ynida miriqib dam olmoqdalar. Ular uchun yaratilayotgan bunday shart-sharoitlar, keng imkoniyatlarga javoban ona yurtiga, xalqiga munosib farzandlar bo'lib kamol topishlariga ishonamiz. Birlari sport ustasi, birlari raqqosa, birlari olim, yana birlari shoir yoki yozuvchi bo'lishar. Kim bo'lsalar ham, omon bo'lsinlar. Hozircha miriqib dam olib, beg'ubor bolalik gashtini sursinlar.

Gulyuz ORIFJONOVA.

Ta'til kunlarimizning ham ko'pi ketib o'zi qoldi. Xo'sh, Toshkent viloyati, Toshkent tumanida istiqomat qilayotgan tengdoshlarimizning ta'til kunlari qanday o'tmoqda? Shu savol bilan tumandagi Maqsud Shayxzoda nomli o'quvchilar ijodiyot markazining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha uslubchi, shuningdek, «Mohir qo'llar» va «Yosh qalamkashlar» to'garaklari rahbari Nigora opa MURODOVAGA murojat qildik:

### Mening bo'sh vaqtim

bu yerda o'zlari yozgan she'r, maqolalarini bir-birlariga o'qib beradilar va fikr almashadilar. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi, o'zgalar mehnatini qadrlashni o'rgatadi.

Ularning ijod namunalari tumanimizdagi «Istiqlol nuri» gazetasida chop etilib turadi.

— Ijodiy markazga qancha o'quvchi qatnaydi?

Hozirgi kunda bolalar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, qaytadan o'quvchi bo'lib qolgim kelayapti. Zamonaviy kollejlarda tahsil olish, kompyuter texnologiyalarini mukammal o'rganish. Buning uchun faqat intilish, qiziqish bo'lsa bas...



ko'rsam, o'quvchilik yillarim, sinfdoshlarim yodimga tushib ketadi-da. Men doim o'quvchilarimga bu gazetaga obuna bo'lishlarini maslahat beraman. Chunki gazetada e'lon qilinayotgan maqolalar, o'quvchilar ijodidan namunalari o'quvchilarimning ma'naviyatini oshirishi, shuningdek, so'z boyligini boyitishi tayin.

— Bugun ana shu gazetaning chop etilayotganiga 76 yil to'larkan. Uning ijodkorlariga tilaklaringiz...

— Ularga omad, ijodiy zafarlar tilayman. Bolalarga ma'naviyat, nur ulashib aslo charchashmasin.

— Sizning ham ezgu ishlaringizda omad tilaymiz.

Kamola ERGASH  
qizi suhbatlashdi.


— Nigora opa, uslubchilik, yana bir emas, ikkita to'garakka rahbarlik qilish sizga qiyinchilik tug'dirmaydimi?

— Mehnatsiz,

qiyinchiliklarsiz maqsadga erishib bo'lmaydi. Jurnalistikaga, she'riyatga ishtiyoqim baland. Shogirdlarimga ham qo'ldan kelgancha saboq berib kelyapman. Ularning maqola va she'rlari orqali ichki dunyosiga nazar tashlashga intilaman. Chunki insonning qanday fazilatlariga ega ekanligini, uning qalbida nimalar borligini, faqat uning yozgan narsalari orqali bilsa bo'ladi. O'quvchilarim dilidagi gaplarini oq qog'ozga tushirishadi va u chiroyli she'r yoki maqola bo'lib yaraladi. Men ularga faqat turtki beraman xolos. Bolalar

## «TONG YULDUZI» NI O'QIB...

— O'z nomidan ham ayonki, markazimizga ijodga ishtiyoqmand o'quvchilar qatnashadi. Bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish barobarida biror hunarning boshini tutish uchun keladilar. Maqsadimiz — hech bir o'quvchi bo'sh vaqtini zoye ketkazmasin. Chunki vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi.



— Nigora opa, o'quvchilik yillaringizda qanday gazetalar o'qirdingiz?


— Hozir siz sevib o'qiydigan «Tong yulduzi»ni o'qib, kamol topganmiz. Faqat uning nomi boshqacha — «Lenin uchquni» deb nomlanardi. Unga sinfimiz bilan yoppasiga obuna bo'lardik. Hozir ham shu gazeta qo'limga tushib qolsa, yuzimga tabassum, qalbinga allanechuk iliqlik yuguradi. Chunki uni

## PARIJNI KO'RSAM DEYMAN

Parij. Bu so'zni eshitganimda, qalbinni hayajon bosadi. Bu balki shu yurtga kuchli mehr qo'yganimdandir?.. Parijga borish, Eyfel minorasini ko'rish va Fransiya bo'ylab sayohat qilish — mening eng katta orzum. Hatto minoraning suratlarini ham chizganman. Parijga bog'liq bo'lgan hamma narsa e'tiborimni tortadi. Axborot ko'rsatuvlarida Fransiyaga oid ma'lumotlarni kuzatib boraman. Shu shaharga nisbat qilinadigan iboralarni ham bilaman.

Masalan, «Parij — go'zalliklar poytaxti», «Parij — xalqaro modalar poytaxti», «Eyfel minorasi — Fransiya yuragi», «Parij — kosmetikalar vatani»... U yerda o'tkaziladigan festivallarni, ayniqsa, «Kann» festivalini juda yaxshi ko'raman. Yana, Sena orolchasi, «Grand-opera» teatrlarida hordiq chiqarishni istayman. Bir kun kelib, ushbu orzuim albatta amalga oshishiga ishonaman.

Feruza G'AFUROVA,  
Samarqand shahridagi  
14-umumta'lim maktabning  
6-«maxsus» sinf o'quvchisi.



## JAVOB XATI KUTYAPMAN

Bizning maktabda tilga bo'lgan e'tibor juda kuchli. Ikki yildirki, bizga amerikalik mister Gordon Gentli ingliz tili fanidan dars berib kelmoqdalar. Shu o'quv yilning so'nggi oylarida ustozimiz bizlarga ta'tilda zerikmasligimiz uchun amerikalik tengdoshlarimizning manzillarini berib, maktub yozishimizni aytdilar. Hammamiz ingliz do'stlarimizga maktub yozdik. Men yozgan xatga Olive ismli tengdoshimdan javob keldi. U O'zbekiston haqida, o'zbek bolalari haqida ko'proq narsalar bilishga qiziqayotganligini va men bilan tez-tez maktub yozishib turishini aytdi. Men ham vaqt o'tkazmay, maktab hayoti va ta'til kunlarimiz haqida yozib yubordim. Endi esa undan navbatdagi maktubni kutayman.

Mohira ABDUSHUKUROVA,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 116-maktabning 5-sinf o'quvchisi.




## XITOIY — MO'JIZAKOR YURT

Men dunyo mamlakatlariga juda qiziqaman. Har biri haqida ko'plab ma'lumotlar olishni va do'stlarimga so'zlab berishni yoqtiraman. Hozir sizlarga Xitoy haqida bilganimcha ma'lumot bermoqchiman: Eng qadimiy va yirik davlatlardan biri hisoblangan Xitoy aholisining soniga ko'ra, jahonda eng yirik mamlakat hisoblanadi. Poytaxti Pekin shahridir. Xitoyliklar bir millatli mamlakatdir. Bu yurt toshko'mir, temir, surma, qalay kabi ko'plab tabiiy resurslarga boy bo'lib, o'zining qadimiy Buyuk Xitoy devori bilan mashhur. Xitoyliklar ham biz kabi bolajon xalqdir.

Hozircha mening Xitoy haqida bilganlarim shu. Agar sizlarda bundan-da qiziqarli ma'lumotlar bo'lsa, men bilan o'rtoqlashing.

Javlon FARMONOV,  
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi.





## DONIYORNING MEDALLARI

Doniyorjon Dilmurodov sportga astoydil mehr qo'yan tengdoshlarigizdan biri. Uning Shayxontohur tumanidagi Nazir Safarov nomli 137-maktabning 1-sinfiga qadam qo'yaniga ham, sportning karate turi bilan shug'ullana boshlaganiga ham 4 yildan oshdi.

Qani, quloq solaylik-chi, Doniyorjon bizga o'zi haqida nimalarni so'zlab berarkin:

— 5 yoshligimda oyim qo'limdan yetaklab karate to'garagiga olib borganlar. Chunki tez-tez shamollab qolaverarkanman. Oyoqlarim ham og'rib turarkan... Birinchi marta tatamiga chiqqanimda, qo'rquvdan oyoqlarim qaltiragan kechagidek yodimda. O'shanda sevimli ustozimiz Nurxon aka Nafasov menga: «O'zingni bardam tut, qo'rqmasdan mashqingni qil», — deya dalda bergandilar. Kuzatib tursam, men tengi bolalar karate mashqlarini ephillik bilan dadil bajarishyapti. Bora-bora men ham ulardek erkin mashq qiladigan bo'ldim. Ustoz aytganidek, o'zimdagi ishonch tuyg'usini shakllantira bordim. Hatto, ayrim tengdoshlarimdan kuchliroq ekanligimni his qila boshladim. 7 yoshimda kumush, 8 yoshimda oltin medal sohibi bo'ldim. Hozirgi kunda 3 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta

bronza medallarim uyimiz to'rini bezab turibdi. Endigi maqsadim — qora belbog' sohibi bo'lish...

Doniyorjon sport sohasida erishgan yutuqlarini sanadi-yu sport tufayli erishgan eng katta yutug'ini aytib o'tishni unutdi, chog'i: u oxirgi marta qachon shamollaganini eslolmaydi. Menimcha bu uning eng katta yutug'i!

**Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,**  
Toshkent shahridagi 137-maktabning  
9-sinf o'quvchisi.



## YENGILGAN KURASHGA TO'YMAS

Biz ushbu musobaqaga tuman va viloyatda g'olib bo'lib kelgandik. Bu yerda g'oliblik nafaqat harakatga, balki omadga ham bog'liq ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik...

Harchand harakat qilmaylik, oilamiz 7 o'ringa loyiq topildi. G'alaba nashidasini surolmay, musobaqadan noumid bo'lib qaytyapmiz. Shunday bo'lsa-da ruhimiz tetik. Chunki biz sportchilar oilasimiz-da. Birgina mag'lubiyatdan tushkunlikka tushish bizga yarashmaydi. Aksincha, yengilgan kurashga to'ymas, deganlaridek, endi sport bilan yanada jiddiyroq shug'ullanishga, navbatdagi bellashuvlarda g'alabani qo'ldan bermaslikka harakat qilamiz.

**Ozoda PO'LATOVA,**  
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi  
2- BO'SM direktori.

Men Qashqadaryo viloyatining so'lim Uymout qishlog'ida yashayman. Qishlog'imizda sportsevar bolalar talaygina. Men ham ulardan biriman. Mana 3 yildirki, xo'jaligimizda tashkil etilgan «Taekvondo ITF» yo'nalishidagi «Chaqmoq» klubida shug'ullanib kelyapman. Respublika miqyosidagi ko'plab musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rirlarni egallashga ham ulgurdim.



## «MEN MAQTANCHOQ EMASMAN...»

Yaqinda Jizzax shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida muvaffaqiyatli qatnashib, oltin medalni hamda O'zbekiston chempioni degan sharafli nomni qo'lga kiritib qaytdim. Bunda albatta ustozim Egamqul aka Oqboyevning xizmatlari katta...

Bu qiz juda maqtanchoq ekan, deb o'ylayotgandirsiz. Maqtanmoqchi emasman, qiz bola ham sport bilan astoydil shug'ullansa, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishi mumkinligini isbotlamoqchiman, xolos. Negadir ko'pchilik ota-onalarimiz qizlarning sport bilan, ayniqsa, uning karate turi bilan shug'ullanishlariga qarshi bo'ladilar. Axir o'g'ildir, qizdir, sog'lom, baquvvat bo'lib kamol topishi kerak-ku. Sportning esa bu borada o'rni beqiyos.

**Nargiza URALOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi  
1-gimnaziyaning 5-sinf o'quvchisi.

## MEN, OTAM VA ONAM — SPORTCHIDIR OILAM

Kuni kecha poytaxtimizda joylashgan «Umid» bolalar sport majmuasi sportchi oilalar bilan yanada gavjum bo'ldi. O'zbekiston Bolalar sport jamg'armasi, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi, «Kamolot» YoIH va Kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan oilaviy sportchilar ishtirokidagi sport bayramining ikki kunlik final bosqichi yakunlandi. Unda respublikamizning 9 ta viloyatidan kelgan sportsevar oilalar bellashdilar. Musobaqalar arqon tortish, qopda sakrash, «Ovchi va quyon», basketbol to'riga to'p tashlash va darvozaga to'p kiritish kabi 5 tur bo'yicha bo'lib o'tdi. Bahslarning bari qiziqarli kechdi. Ayniqsa, arqon tortish hamda «Ovchi va quyon» bahslari tomoshabinlarning hayajonli olqishlariga sabab bo'ldi. Bellashuvda farg'onalik, xorazmlik va toshkentlik sportchi oilalar vakillari alohida jonbozlik ko'rsatdilar. Musobaqa o'z nomidan ko'rinib turganidek, g'olib va mag'lubni aniqlab beruvchi haqiqiy hakamdir. Bu musobaqaning mutloq g'olibligi toshkentlik Shukurovlar oilasiga nasib etdi va esdalik uchun rangli televizor topshirildi.

**Akmal OCHILOV,**  
Akrobatika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining bosh murabbiysi, S. Rahimov tumanidagi «Olimpiya zahiralari» sport-maktabining direktori, musobaqa bosh hakami.

## MENING IKKI AKAM BOR



Mening ismim Muslima. Yaqinda olti yoshga to'laman. Sizlarga o'zim haqimda emas, akalarim haqida so'zlab bermoqchiman. Katta akam Abdulaziz bu yil yuqori sinfga o'tdilar. Ular hamma narsaga qiziqadilar. Futbol, karate, kitob o'qish, kompyuterdan bo'sh vaqtlari ham qolmaydi.

Lekin menga kompyuter o'rgatishga doim vaqt topadilar.

Matematikani juda yaxshi ko'radilar. Yaqinda buvijonimning tishlari og'rib qoldi. Shunda akam men katta bo'lsam, tish davolovchi shifokor bo'laman, shunda buvijonimning tishlari hech qachon og'rimaydi, — dedilar. Bu gapni eshitib buvim juda xursand bo'lib ketdilar. Faqat biz emas, ko'chamizdagilar ham shu

akamni juda yaxshi ko'rishadi. Do'stlari juda ko'p: Abduljalil, Sherzod, Jahongir, Farrux, Abdusamad, Umid... Sanayversam, kichik akamga navbat yetmaydi.

Abdurazzoq akam esa, endigina 3-sinfiga o'tdilar. Ular rus sinfga o'qiydilar. Menga rus tilini o'rgatyaptilar. Rasm chizishni juda yaxshi ko'radigan bu akam, dodam va buvimning erkatoy nabiralari desam ham bo'ladi. O'rtoqlari Avaz, Shukur, Ziyodullalar bilan kunlari ko'chada o'tadi. Katta akam eshitmasinlar-u, kichik akam bilan juda ko'p urishsam ham baribir ularni ko'proq yaxshi ko'raman. Katta bo'lsalar, kim bo'lishlarini hali o'ylab ko'rmaganlar.

Akalarim maktablaridagi karate to'garagiga qatnashishadi. Har kuni ertalab men uxlab yotganimda yugurishga chiqishadi. Ular sport bilan shug'ullanishni juda yaxshi ko'rishadi... Hozircha men bog'chadaman. Keyingi yil maktabga chiqsam, hamma meni, aka-uka karatechilarning singlisi, deyishlarini xohlayman.

**Muslimaning so'zlarining Ma'suda VOHIDOVA yozib oldi.**



**Suratda: Toshkent shahridagi 242-maktabning 5-sinf o'quvchisi Abdulaziz va 3-sinf o'quvchisi Abdurazzoq Obidovlar.**

Bola tilidan

Kechiring



Inson hayoti davomida turli xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishi, bilib-bilmay kimnidir ranjitib, dilini og'ritib qo'yishi mumkin. Lekin birgina «kechiring» degan sehrli so'z barcha dilxiraliklarni tarqatib yuborishi mumkinligini bilamizu lekin buni hammamiz ham tan olavermaymiz. UZR so'rashga ko'pchiligimizning g'ururimiz yo'l qo'ymaydi, ba'zilarining esa o'sha lahzalarda esiga kelmaydi. Lekin keyinchalik vijdonimiz qiynalib yuradi.

Bizningcha, kechirim so'rash uchun hech qachon kech bo'lmaydi. Xafa qilgan odamingizning agar o'zidan uzr so'ray olmasangiz, marhamat, gazetamiz orqali uzr so'rashingiz mumkin. Biz ularni o'z egalariga albatta etkazamiz.

Quyida e'tiboringizga ana shunday maktublardan ayrimlarini havola qilyapmiz. O'qib, xulosa chiqarish sizdan, aziz o'quvchilar.

## UZRIMNI YETKAZING

Men shahrimizdagi nufuzli litseylardan birida o'qiyman. Nomini yozadigan bo'lsam, avvalambor o'zimning, qolaversa, ustozlarim, litseyimizning sha'niga dog' tushishi tayin...

Keling, yaxshisi bo'lgan voqeani bir boshdan so'zlab beraqolay: bu voqea shu yil qish kunlarining birida ro'y berdi. Qalin qor yoqqani uchun yo'llar juda sirpanchiq edi.

O'rtoqlarim bilan mazza qilib qorbo'ron o'ynab kelayotgandik. Yonimizdan o'tayotgan katta yoshli o'quvchilar qizlarni oyog'idan chalib, itarib, qorga dumalata boshlashdi. Bu ermak bizlarga ham yoqdi. Yo'limizda uchragan qizlarni qorga dumalata boshladik.

Shu payt yo'lakda sirg'ana-sig'ana kelayotgan bir kelinchakka ko'zim tushdi. Shumlik qilgim kelib, yonimdagi o'rtog'imni kelinchak tomon itarib yubordim. Ular baravariga dumalashdi. Bir payt qattiq baqiriqdan o'zimga keldim. Ust-boshini qoqib ulgurmagan o'rtog'imni bir ayol tutib olib, tanbeh berar, yerda esa... homilador kelinchak yuzlarini bujmaytirib o'tirardi. Men kelinchakning bu ahvolda ekanligini xayolimga ham keltirmagandim. Nari-beri ularni ko'tarib olish uchun shoshildim. Lekin haligi ayol menga ham baqira ketdi. O'sha kuni yomon ahvolda qoldim. Darslarimni ham tayyorlay olmadim. Xullas, hali-hanuz o'zimni kechira olmayapman. Aziz tengdoshlar, menga yordam bering, men yiqitib yuborgan kelinchak balki sizning qarindoshingiz yoki kelinoyingizdir. Ularga mening uzrimni yetkazing. Kechira olsalar, meni kechirsinlar.

FARHOD, 11-sinf o'quvchisi.



## «FARISHTA» QIZ

Ko'chamizda Farida ismli qiz bor. Uni hech kim ismi bilan emas, «Farishta» deb atashadi. Bir kuni u bilan novvoyxonada navbatda turib qoldik. Juda tor shim kiyib olgan, ustiga-ustak og'zidagi saqichini ermak qilib, pufak chiqarib chaynayotgan bu qizning «farishta»ligiga biroz shubha qilib qoldim. Novvoylar non pishganini aytib, navbatma-navbat sota boshlashdi. Shunda yosh bolasini ko'tarib olgan bir kelin kelib qoldi va mendan non olib berishimni iltimos qildi. Men rozi bo'ldim. Shu payt yelkandan kimdir qattiq turtdi. Ortinga o'girilsam, «farishta». «Kerak bo'lsa o'zi olsin, bu yerdagilar odammasmi, qaytar pulini», - desa bo'ladimi? Nima qilishimni bilmay, kelinga qaradim. U bo'lsa, mayli, o'zimga bera qoling, deb navbatga turdi...

«Farishta»ning navbati kelganda, «menga ne to non berdingiz», - deya novvoy bilan urishib, o'g'il bolalarga o'xshab so'kina ketdi. Hamma hayratda qolgandi. Tavba, unga kim «farishta» deb nom berdiykin? Bu qiz farishta emas, shaytonning o'zginasi ekan-ku, degan o'y o'tdi xayolimdan. Men bu qizga achindim. Nega deysizmi? Chunki u ma'nan qashshoq ekan. Og'zidan bodi kirib, shodi chiqadigan bu qizga Farida ismi ham uvul...

Malika BOYNAZAROVA,  
11-sinf o'quvchisi.



## «YAXSHIDAN BOG' QOLADI»MI?

Bu maqolni hammamiz yaxshi bilamiz. Mening bobom umr bo'yi bog'bonlik qildilar. Garchi ba'zilar shu ham ishmi, deya qo'l silkitishsa-da, ammo ular doimo qo'llarida tok qaychi bilan ishkamlarni, bog'larni aylanishdan sira ham charchamasdilar. Hovlilariga turli-tuman gul ekib, qo'ni-qo'shnilarimizni ko'chalaridagi ozgina joylariga ham ko'chat o'tqazib qo'yardilar. Mabodo qo'shnilarining gulga qarashga vaqtlari bo'lmasa, o'zlari suv quyib, tagini yumshatib ham qo'yardilar. Mana, bobojonimni vafot etganlariga ham 3 yil bo'ldi. Bu orada ko'p voqealar yuz berdi. Dadam katta akamga atab, bobomning ne mashaqqatlar bilan ko'kartirgan bog'larini buzdirib, o'mniga ikki qavatli uy solmoqchilar. Aslida hovlida ham kattagina uylar bor. Ammo dadam bu uylarni eski zamonda qurilgan, deya yangicha urfdagi uyni afzal ko'rayaptilar. Buvim ko'p marta dadamga nasihat qilib, bobomni ruhlarini chirqiratmaslikni so'rasalar-da, lekin dadam ularga quloq solmayaptilar. Albatta, bu gaplarim uchun dadamlan uzr so'rayman-u, lekin to'g'risini aytsam, bog'ning buzilishiga men ham qarshiman. Bobojonimning gurkirab, ko'karib turgan bog'lariga allaqanday hashamdor uyni sira ham almashtirmayman.



Shirina FAYZIYEVA,  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani.

Sinfimizda Nigora ismli qiz bor edi. Uning yurish-turishi-yu, kiyinishi hammani lol qoldirardi. Nigora esa hech kimni nazar-pisand qilmasdi. Bir kuni Nigora dadasi unga kompyuter olib bergani va uni internetga ulatishganini aytib qoldi. Bu qizni a v v a l d a n yoqtirmaganligim uchun uni bir sarosimaga solmoqchi bo'ldim va internet orqali manziliga sinfdoshim Bahrom ismli bola nomidan har xil gaplarni yozib yubordim. Ertasi kuni

Nigora maktabga kelib, Bahrom bilan urisha ketdi. Bahrom gap nimadaligini tushunmay garang bo'lib turaverdi...

Shunday qilib men har kuni har xil gap-so'zlarni to'qib, sinfdoshlar nomidan yuboraverdim.

## MEN YIG'LAGAN KUN

Ertasi kuni esa maktabda antiqa tomoshaning guvohi bo'lardim. Nigorani ko'rgani ko'zim yo'q edi. Shuning uchun ham uni hammaning oldida izza bo'lishini istar, uni kamsitib, haqorat qilishlarini xohlardim. Xullas, shunday kunlarning birida Nigora maktabga kelib, papkasini tashladi-da, hammaga, men sizlar o'ylagandek yomon qiz emasman, nega meni bunchalik haqorat qilasizlar, sizlarga nima yomonlik qildim, deb yig'lab yubordi. Ichimda, battar bo'l, deb quvonib o'tiraverdim. Bitirish oqshomimizga bag'ishlangan o'tirishda

Nigora juda chiroyli ko'ylak kiyib keldi. Men uning oldiga borib, maktabni tugatayotganimiz bilan muborakbod etdim. Shu payt Bahrom menga turtilib ketib, patnisdagi ovqati ustimga to'kilib ketdi. Nima qilishimni bilmasdim. Nafasim bo'g'zimga tiqilib qolgan, Nigora esa Bahromni urishardi. Alamimga chiday olmay, yig'lab yubordim. Chunki o'tirish endigina boshlanayotgan edi-da. Shu payt Nigora: - Siqilma, dugonajon, menda yana bitta ko'ylak bor. Xohlasang, narigisini sen kiyib tur, yur bizning uyimizga deb, meni uyiga olib ketdi. Birpasda hech narsa bo'lmagandek Nigoraning ko'ylagini kiyib, pardo ham qilib oldim. Shunday samimiy va ochiqko'ngil sinfdoshimga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lganimdan rosa izza bo'ldim. Kecha so'nggida ko'ylagimni almashtirish uchun Nigoralarnikiga bordik. Kompyuterini ko'rib, qilgan ishlarim yodimga tushib, yig'lab yubordim. U esa yig'imning boisini bilolmay hayron edi.

Sanobar KARIMOVA,  
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, bitiruvchi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Nima qilaylikki, bizning ko'zimizda pomidor pishirib, daraxtlarni o'stirvoradigan qudrat yo'q. Quldek ishlaymiz-da.

Yo'ldosh Eshbek qo'lini orqasiga qilib, yelkasi bilan yurib viqor bilan salom-alik qilib, ochgan qo'rig'imni tepkilab, «shamollatish» uchun qoldirgan xarsang ustidan joy topdi. Elektr poyezdda birga kelgan edik. Vagundayoq menga bir nima demoqchi bo'luvdi-yu chalg'ib, gapi og'zida qolib edi. Jiddiroq gapi bo'lsa kerak-da. Qimmatli vaqtini ayamay kepti-ku. Bir hisobda yaxshi bo'ldi. Boymurod akaga o'xshab bu kishimam gap berib o'tirsalar bas, ishim yanayam siljib qoladi.

Aytganimdek, Yo'ldosh Eshbekning keti toshga tegmay, gapni kelgan joyidan boshlavordi:

— O'sha kuni deng, aka, Xudo bir saqladi-da. O'lay agar, yolg'on gapirsam, yigit yoshidaman, sal sizdan istihola qildim, bo'lmasa... Bir hisobda keb qolganingiz durust bo'ldi, — deya bundan bir hafta oldingi mashmashani eslatdi.

Biz har doim poyezddan tushgandan keyin bog' hovligacha anchagina yo'lni poyi-piyoda bosib o'tamiz. Yo'ldosh Eshbek jiyani shoir Rauf Subhon bilan tezlab, bizdan o'tib ketishib edi. Biz «Chinor» choyxonasiga yetay deganimizda katta ko'chada birdan olatasir bo'lib qoldi. Qulog'imga Yo'ldosh Eshbekning hayqirig'i eshitildi:

— Hov mishiqlar, qo'ylaring uni, zo'ring bo'lsang bu yoqqa ke!

Tezlab borsam, mast bolalar Rauf Subhonga tirg'alib turishibdi.

— Rauf o'zingni bos, — derdi Yo'ldosh Eshbek, — qo'l ko'tarma, bilasan senga mumkinmas.

Mishiqlarning bittasi birdan Yo'ldosh Eshbekka tashlanib qoldi. Yo'ldosh Eshbek uni o'ziga yaqinlashtirmayoq o'ng qo'li bilan yoqasidan tutdi. «Ya-a-a» deb mushtini mishiqlining iyagiga tirab, shunday ko'tardiki, naq esxonam chiqib ketdi. Axir bitta odamni bitta qo'lda azot ko'tarishni

o'zi bo'ladimi?! Birdan Yo'ldosh Eshbekning ko'zi menga tushdi-yu mishiqlini qayerdandir kelib to'xtagan yengil mashinaning kapotiga tashlab yubordi. Hammayoq taraqq-turuq bo'lib ketdi. Qarasam, janjal kattalashadigan. Mast bolalarni yalinib-yolvorib chetga tortdim.

— Qo'yinglar, ukalar, yaxshimas, bir joyda turib... ertaga ko'z-ko'zga tushsa... axir biz yozuvchilarmiz-ku, dachaga dam olgani kelyapmiz...

— Yozuvchi! — deya bittasi chayqalib, xayriyat hushyor tortdi, — siz, siz... kimmm...siz?..

— Erkin Malikman... qo'yaqol uka... Xo'p de...

— A-a-a-a, — dedi u meni quchoqlab «Shaytanat», «Shaytanat»! Gap yo'q, gap yo'q, zo'r, zo'r... Hov, hov deyapman, — deya sheriklarini o'ziga qaratdi u, — qo'ylaring, bular o'zimizdan, — «Shaytanat» deya menga osilganча yuzlarimdan o'pdi. — Asadbekka salom... Bizning apoq-chapoq bo'lib turganimizni ko'rgan sheriklari birdan bo'shshdi.

Bezorilar meni Tohir Malik deb o'yladi shekilli. Lekin nimagadir shu ondayoq ko'nglimda ularga nisbatan zig'irchayam gidr qolmadi. Kitob o'qisharkan-da, axir...

Men hozir Yo'ldosh Eshbekning o'sha paytdagi holatini yana bir marta ko'z oldimga keltirdim-u bosh chayqab, unga dedim:

— Jahl chiqqanda odam kuchga to'lib ketarkanmi, a, Yo'ldosh Eshbek? Oltmish kilocha boridiyov o'sha bola?

Yo'ldosh Eshbekning ko'zlari kattarib, vujudi shijoatga to'lib ketdi:

— Menga baribir edi o'shanda, aka, oltmishmi, yetmishmi, yuzmi... Zang'arni shu turishda Chirchiqqa qarab otvormoqchi bo'lib turuvdim. Sizga ko'zim tushgandan keyin... bir o'limdan qoldi bechora. Bo'lmasa, siz Yo'ldosh Eshbek deganlari g'irt jallod ekan-ku, nima qilib shoir bo'lib yuribdi, deyishingiz mumkin edi-da-a, aka?

— O'zi, shu... — deyman Yo'ldoshning so'zlaridan zavqim toshib, — sichqonning

Erkin MALIKOV

belbog'li karatechi bo'lsa. Qo'yib bersa unaqalarning mingtasini urar. Nima dedingiz?

— Uradi, urgandayam shunaqangi uradiki, — deydi Yo'ldosh Eshbek keng yelkasiga yarashgan dumaloq boshini likillatib, — Rauf mening ham jiyanim, ham shogirdim. Sabrli bola, unchamunchaga qo'l ko'tarmaydi. Ammo-lekin o'sha kuni bezorilarni vaqtida o'zimga qarating oldim-da...


— Shunday, shunday. Lekin ulardan bittasi «Shaytanat»ni o'qigan ekan, bezori bo'lsayam mehrim tovlanib ketdi. Ularni insofga keltirgan narsa «Shaytanat» ekanligini negadir Yo'ldosh Eshbekka aytib o'tirmadim.

Yo'ldosh Eshbek boshidan jazirama oftob urib tursayam, ancha gap berib o'tirdi. Ovozi o'qdek, quloqni teshay deydi. Yo'ldosh Eshbek gapirsa, karnayning keragi yo'q. Ba'zan o'zining bo'lar-bo'lmas kuzatishlari bilan qo'l olishib ketay deb kelgan odamni xit qivoradi. Toqati toq bo'lgan suhbatdoshi «Bo'pti, Yo'ldosh Eshbek, men shoshib turuvdim, keyinroq bafurja-a, gaplasharmiz», deydi ming mulohaza bilan. Yo'ldosh Eshbek bo'lsa o'sha-o'sha beparvo. «Ha... Siz borovring, borovring, yo'lingizdan qolmang, men gapirovraman» deydi. Uning bundayin gaplaridan ko'pchilik hayron bo'lib, tomi joyidami deb qo'yishadi. Bilishmaydiki, Yo'ldosh Eshbekni to'rt tomonida to'rtta muakillari bor. U gapirganda muakillariniyam e'tiboridan qochirmaydi. Suhbatdoshi zerikishi mumkin, ammo muakillari zerikishmaydi. Ro'parasida qo'l qovushtirib «shunday deng, taqsimim» deb turaverishadi. Buni ba'zilar bilishmaydi, eng yomoni bilishniyam istashmaydi.

(Davomi bor).

## OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)




o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi, deganlari rost ekan.

— Xalq dono-da, aka... — entikib qo'ydi Yo'ldosh Eshbek.

— Bo'lmasa kelib-kelib, kimsan Rauf Subhon-u sizdek odamga tirg'alishadimi u mishiqlar. Rauf Subhon kimsan qora

## SHE'RIVATGA SHAYDO OPA-SINGILLAR



Shalola va Farangiz Eshboyevalar Kattaqo'rg'on shahridagi Nodirabegim nomli 6-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qishlari bilan birgalikda, binoyidek she'rlar ham mashq qilishadi. Ularning ustozlari ta'lim dargohi o'qituvchilari, muxlisleri esa ushbu maskanning o'quvchilardir. Bu ahil opa-singillar bo'sh vaqtlarida shahardagi 2-sonli musiqa maktabining dutor to'garagiga muntazam ravishda qatnashadi. Kechki payt oila davrasida «Bahor valsi», «Yangi tanovor», «Jo'ravoy» kabi kuylarni maroq bilan ijro etishganida,

Sojida opa qizlarining iqtidorini ko'rib, ko'ngli tog'dek ko'tariladi.

Shalola va Farangiz bugun yangi she'rlarini «Tong yulduzi» orqali Sizlarning hukmingizga havola qilishmoqchi:

### BO'LING DOIM SALOMAT

Sihat bo'lsin, bo'lsin doim el salomat,  
Sog'lom tanda barkamollik xo'p alomat.  
Mashaqqatdir davo izlab bemor bo'lish,  
Ahvolidan ko'ngli to'lmay, g'amga to'lish.

Sog'liq bo'lsa eng zo'r boylik inson uchun,  
Har jabhada sinayvering uning kuchin.  
Aqli raso, kelajagi porloq bo'lar,  
Sog' odamning ko'ngli doim nurga to'lar.

Shalola ESHBOYEVA,  
8-sinf o'quvchisi.

### O'RTOG'IM

O'rtog'im mehribon, bilsangiz,  
U menga, men unga yordamchi.  
Biz kabi chin o'rtog' bo'lsangiz,  
Doimo bo'lasiz a'lochi.




Farangiz  
ESHBOYEVA,  
5-sinf o'quvchisi.

## RASMLAR KO'RGAZMASI

Tengdoshingiz Iroda AVVALBOYEVA, 58-o'rta maktabning 1-«A» sinfida tahsil oladi. U gullarni, qushlarni, ayniqsa

### KAPALAKLAR QANOTIDA KOL

kapalaklarni juda sevadi. Tabiatga shaydo qizaloqning o'zi ham xuddi kapalakka o'xshaydi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining raisi Tursunali aka Qo'ziyev Irodaning ustozlari. Mo'yqalam sirlarini qunt bilan o'rganayotgan qizaloq tahririyatimizga ta'til paytida chizgan rasmlari bilan tashrif buyuribdi. To'g'risi, uning chizgilarida kamchiliklar ko'p, lekin tirishqoq tengdoshingiz aslo ortga chekinmash. Ajab emas, kelajakda Iroda Avvalboyevaning rasmlari katta-katta ko'rgazmalarga qo'yilib, yurtimiz dovrug'ini olamga taratsa.



# HAMMANING «BOSHINI QOTIRGAN» BOLA

— **Abdullo, krossvord tuzishni necha yoshingizdan boshlagansiz?**

— O'shanda necha yoshdaligim esimda yo'g'u maktabga chiqmagandim-da. Ukam ikkimiz o'ynab yurgandik, boshqotirma yechib o'tirgan buvijonim bir savolga javob topolmay,

meni yordamga chaqirdilar. Buni qarangki, taxminan aytgan javobim to'g'ri chiqib qoldi. Keyin esa boshqotirma yechishga o'zim ham qiziqib qoldim. Ularni qanday tuzish haqida bobomdan maslahatlar oldim. Chunki bobojonim ham boshqotirma tuzishning haqiqiy ishqibozilar-da. Uydagi ko'plab kitoblari, ensiklopediyalaridan foydalanib, talaygina qiziqarli savollar topdim.

— **Tuzgan krossvordlaringizning birinchi yechuvchilari kimlar bo'ladi?**

— Albatta ota-onam, buvajonlarim va buvijonlarim-da. Keyin ularni ustozimga, sinfdoshlarimga ko'rsataman. Do'stlarim uni ko'p bosh qotirmay, tezda yechib qo'yishsa, xafa bo'laman. Demak, boshqotirmam juda oddiy, savollari jo'n chiqibdi-da, deb. Shunda savollarimni yanada murakkablashtirishga harakat qilaman.

Bir kuni sinf rahbarimiz Muborak opa Abdullayeva darsdan tashqari o'qishda barchamizga krossvord tuzdirdilar. Do'stim Husniddin ikkimizning tuzgan boshqotirmamiz 1-o'ringa loyiq topildi. Mening bir yon daftarcham bor. Unga turli gazetalarda «Bilasizmi?», «O'qi, qiziq!» kabi ruknlar ostida beriladigan qiziqarli ma'lumotlarni yozib yuraman. Bunday ma'lumotlar boshqotirma

**Sarlavhani o'qib, qanday qilib hammaning boshini qotiribdi, deya ajablanayotgandirsiz?**

**Qanday bo'lardi, boshqotirmalari bilan-da...**

**Abdullo ABDULQODIROV** — Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Jo'ra Eshonxo'jayev nomli maktabning endigina 4-sinfini tamomladi. Lekin yoshiga nisbatan aqli ancha teran, mushohadalari jo'yali bola. Tuzgan krossvord-u boshqotirmalari nafaqat tengdoshlari, balki kattalarning ham aqlini shoshirib qo'yadi.

savollarini tuzishimda asqotadi.

— **Kimlarning krossvordlari sizga yoqadi?**

— «Krossvordlar qirol» deya nom olgan Foziljon Oripovning boshqotirmalarini oilamiz a'zolari bilan birgalikda miriqib yechamiz.

— **Abdullo, yana qanday sevimli mashg'ulotingiz bor?**

— Rasm chizish jonu-dilim. Bo'sh qoldim deguncha, yo krossvord tuzaman, yo rasm chizaman, yoki kitob o'qiyman. Yana buvam, adam va ukam bilan shashka, shaxmat bo'yicha turli musobaqalar uyushtiramiz.

— **Siz tengi bolalar bo'sh qolishdi deguncha, shataloq otib, ko'chaga chopishadi. Siz esa...**

— Mahallamizni «Qizlar mahallasi» desa ham bo'laveradi. Men tengi o'g'il bolalar yo'qligi uchun ham ko'chaga chiqqim kelmaydi. Undan ko'ra «LEGO» o'yinchoqlarimdan robotlar, uychalar, vertolyot va hayvonchalar yasab o'tiraman.

— **Ko'pchilik bolalar uy yumushlariga qarashishni or deb bilishadi. Siz-chi?**

— Men oyimning eng yaqin ko'makchisiman-ku. Ko'chalarga suv sepaman, ovqat pishirsalar, kartoshka, piyozlarini tozalayman.

Boshqalar qanday bilmayman-u lekin men onamning yumushlarini biroz bo'lsa-da yengillashtirsam, xursand bo'laman.

— **Maktabdagi shart-sharoitlar sizga yoqadimi?**

— Yoqadi. Bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yetarli. Yangi o'quv yilida maktabimizga kompyuterlar ham olib kelishsa, yanayam yaxshi bo'lardi-da...

— **Ulg'aygach, «Krossvordlar qirol» bo'lishni orzulasangiz kerak-a?**

— Yo'q, xuddi tog'amdek diplomat bo'lsam, chet ellarni ko'rsam deyman. Lekin boshqotirmalar tuzishni ham tashlamayman...

Yoshlikdanoq aniq maqsad sari intilayotgan kulcha yuzli bolakayga biz ham astoydil havas qildik va orzulari ijobatiga tilakdosh bo'ldik.

**NARGIZA suhbatlashdi.**




Qush turi				O'g'il bola ismi
	Fan nomi	Estilohat ...		Musiqasi asbihi
Mevali daraxti	...l-kampir		Sirreylan-riya arimona-bili	
Pichoq g'ilefi	Qush uyasi	Ro... .. Mon		
		Safe ... (shahr)		
Kimyoviy unstr			Ko'plik qo'shimchasi	Maydon o'lchovi
Buri nomi	Quloq, buran doktori			Bilim manbai

## «O'ZBEKISTON SHAHARLARI» CHAYNVORDI

1. Qashqadaryo viloyatidagi shahar.
2. Buxoro viloyatidagi shahar.
3. Farg'ona viloyatidagi shahar.
4. Toshkent viloyatidagi shahar.
5. Xorazm viloyatidagi shahar.
6. Jizzax viloyatidagi shahar.
7. Andijon viloyatining ma'muriy markazi.
8. Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi.
9. Navoiy viloyatidagi shahar.
10. Surxondaryo viloyatidagi minorasi bilan mashhur shahar.
11. Namangan viloyatidagi shahar.
12. Samarqand viloyatidagi shahar.

Tuzuvchi: **Nodirbek YO'LDOSHEV**, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Tog'terak qishlog'i.



**TONG yulduzi**

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida ABDUAZIMOVA

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV, Shuhrat AHMEDOV, Botir UBAYDULLAYEV, Jabbor RAZZOQOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Abdusaid KO'CHIMOV, Nurxon NAFASOV, Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi. Gazeta

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Adadi - 14 530 Buyurtma N: J 1473

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek ESHCHANOV. Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38 144-38-10 144-63-08 Tel./ faks: (99871) 144-24-45